

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 75.032:7.05

AKVAREL TEXNIKASIDA NOAN'ANAVIY YONDASHUV

НЕТРАДИЦИОННЫЙ ПОДХОД В АКВАРЕЛЬНОЙ ТЕХНИКЕ

NON-TRADITIONAL APPROACH IN WATERCOLOR TECHNIQUE

Yunusaliyev Muhammadqodir Tadjimatovich 

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Talabalar ijodiy mashg'ulotlar, shuningdek amaliyot topshiriqlarini bajarish jarayonida akvarel bo'yoqlaridan erkin foydalangan holda, undan noan'anaviy amaliy tajribalar sinab ko'rish va njan'anaviy texnik usullar yaratish. Ijodiy jarayonga yangicha mazmunli yondoshuv bilan amaliyot mashg'ulotlarini qiziqarli tarzda olib borishga va samarali ijod qilishga qaratilgan ma'lumotlar berilgan. Shuni nazarda tutgan holda quyida, amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar ihtiyoriga bir qator amallar hamda ushbu mavzuga oid kimyoviy usullar bo'yicha akvarel texnikasida yangicha noan'anaviy yondoshuvning ayrim jixatlari hususida maslahatlar berilgan. Ushbu amallarni doimiy ravishda bajarish uchun ko'proq pleneerda etyudlar yozishni yo'lga qo'yish juda muhim bo'lib, talabalardan tinimsiz izlanish talab qilinadi. Shundagina talabalar ma'lum bir amaliy tajribaga ega bo'lib, yuqorida aytib o'tilgan akvarel texnikasida yangicha kreativ texnik usulni kashf qilishi va o'zlarida o'zlashtirishlari mumkin. Natijada ushbu mavzu yuzasidan ularda amaliy bilim va ko'nikma hosil bo'ladi. Ushbu maqolada talabalar ijodiy mashg'ulot jarayonida yangicha noan'anaviy yondoshuv bilan akvarel texnikasida kreativ usullarni o'zlashtirishning o'ziga hos hususiyatlari yuzasidan muammoli vaziyati yechimlari tahlili berilgan.

Аннотация

В ходе творческой деятельности, а также выполнения практических заданий студенты пробуют нетрадиционный практический опыт работы с акварельными красками и создают творческие технические приемы. Ориентирован на интересную практическую деятельность и эффективное творчество с новым, осмысленным подходом к творческому процессу. С учетом этого ниже, в ходе практических занятий, студентам доступен ряд действий, а также советы по некоторым аспектам нового, нетрадиционного творческого подхода в технике акварели, по химическим методам, связанным с данной темой. Чтобы делать это последовательно, важно начать писать больше этюдов на пленэре, а от студентов требуется постоянный поиск. Только тогда учащиеся получают определенный практический опыт и смогут открыть и освоить новую творческую технику в вышеупомянутой технике акварели. В результате они получают практические знания и навыки по данной теме. В данной статье дан анализ вариантов решения проблемной ситуации относительно особенностей освоения творческих методов в технике акварели с новым нетрадиционным подходом в процессе творческой подготовки учащихся.

Abstract

Through creative activities as well as practical assignments, students try unconventional hands-on experiences with watercolor paints and create creative techniques. Focused on interesting practical activities and effective creativity with a new, meaningful approach to the creative process. With this in mind, below, during practical classes, students have access to a number of actions, as well as advice on some aspects of a new, unconventional creative approach in watercolor technique, on chemical methods related to this topic. To do this consistently, it is important to start writing more plein air studies, and students are required to constantly search. Only then will students gain some practical experience and be able to discover and master a new creative technique in the aforementioned watercolor technique. As a result, they will gain practical knowledge and skills on the topic. This article provides an analysis of options for solving a problem situation regarding the peculiarities of mastering creative methods in watercolor technique with a new non-traditional approach in the process of creative training of students.

Kalit so'zlar: Noan'anaviy, texnologiya, noan'anaviy, yondashuv, texnik usul, rangtasvir, kimyoviy mahsulot, amorf, tadqiqot, komponent, spirt, natriy xlor (tuz), kristal, tekstura, akvarel, indigo, ultramarin, effekt, estetika, eskiz, kompozit-siya, meyyor, miqdor, hususiyat, tajriba, ko'nikma, tahlil.

Ключевые слова: Нетрадиционный, технология, нетрадиционный, подход, технический прием, живопись, фактура, химический продукт, аморфный, исследование, компонент, спирт, хлорид натрия (соль), кристалл, акварель, индиго, ультрамарин, эффект, эстетика, эскиз, композиция, мера, количество, особенность, опыт, умение, анализ.

PEDAGOGIKA

Key words: *Unconventional, technology, non-traditional, approach, technique, painting, texture, chemical product, amorphous, research, component, alcohol, sodium chloride (salt), crystal, watercolor, indigo, ultramarine, effect, aesthetics, sketch, composition, measure, quantity, feature, experience, skill, analysis.*

KIRISH

Akvarel o'zining original texnik hususiyatlari bilan grafika san'atida alohida o'ringa ega. Ushbu original texnik hususiyatlarning rivojlanishi akvarel bo'yoqlari materiallarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir, ularning tarkibiy qismi sifatli komponent va to'ldiruvchilari ta'sirchan moddalardan iborat bo'lib texnologiya rivojlanishining hal qiluvchi bosqichiga aylanganligidir. Akvarel bo'yoqlaridan ilgari faqat moybo'yoqli rangtasvir asarlariga loyiha va eskizlar tayyorlash uchun yordamchi material sifatida foydalanilgan. Keyinchalik asta-sekin texnik usullarining rivojlanishi bilan mustaqil estetik ahamiyatga ega bo'ldi. Va to'laqonli ifoda etish uchun rangli qatlam bilan ishlashning ko'plab rasmiy texnik usullari paydo bo'ldi. Hozirga kelib har bir sohalarning turli jabhalarida dunyo bo'ylab integratsiya va globallashtirish jarayonida, boshqa sohalar kabi akvarel ijodi ham, mustaqil san'at sifatida o'zining texnik va texnologik jihatdan yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Buni biz kimyoviy reaksiyalar sodir qilish yo'li bilan, turli xil illyuziyali vizual ko'rinishdagi obrazli tasvirlar hosil qilish mumkin bo'lgan ijodiy tajribalarni quyida berilgan manzara, natyurmort yoki portret janrlarida o'tkazilgan ijodiy tajribalar misolida ko'rishimiz mumkin. Quyida rangli qatlam bilan ijodiy ishlashning bir necha kimyoviy usullarini, shuningdek rangli qatlam vizual ravishda qanday o'zgarishini amalda ko'rib chiqamiz. Ushbu landshaft ustida ishlash jarayonida, ranglar qatlami yuzasiga mayda yomg'ir donachalari tushishi natijasida kamdan-kam uchraydigan uchib yuruvchi qorning tasviriy holati hosil bo'ldi (1-rasm).

1-rasm



Ikkinchi manzarada esa sohil bo'ylab yugurayotgan bola go'yo yulduzlarni zabt etib, faqat shu o'jar to'lqinlar qolgandek, uning oyoqlari ostida esa nafaqat ko'pik, balki qumli sohilni ham eslatuvchi vizual illyuzani hosil qiluvchi taasurotni ifodalashda, rang dog'lari qurib ulgurmagan tasvir yuzasining kerakli joylariga kerakli miqdorda tuz kristallari sepilgan. Kompozitsiyada bolani manzara bilan uyg'unlashuvida dengiz to'lqinlari harakatini va suzuvchi bulutlarni tuz va suv sepih yo'li bilan amalga oshirilgan (2-rasm).

2-rasm



3-rasm



3-manzarada yer va o'simliklarning fakturasi hamda yaqinlashib kelayotgan momaqaldiroq, shuningdek yomg'ir tomchilarini hosil qilishga erishishning asosiy vositasi tuz bilan amalga oshirilgan. Ranglarning suvli qarishmasini qog'oz yuzasiga yengil oqizish va mo'yqalamda surtib berilgan, rang qatlami yuzasidagi fakturalarni qanday ko'rinishini hamda ularning teksturali yuzalarini solishtirib, farqini ko'rib chiqamiz(4-rasm).



4-rasm

Amaliy qismda barcha rang tuslari zich qatlam bilan nam qog'ozda bajariladi. Asosan sovuq ranglardan foydalanib indigo va ultra-marin ranglarini ishlatish, bu sizga teksturaning haqiqiylikidan ko'proq qarama-qarshi effektlarni ko'rsatishga imkon beradi. Kichik mo'yqalam surtmasi ba'zan detallashtirishda ishlatiladi. Lekin surtma o'lchami sizga kerakli tusni qo'shishga imkon berishi uchun moyqalam kichik bo'lgani ma'qul. Planshetni bir oz pastga og'ishi suv bo'yoqni tezda pastga tomon siljishiga imkon beradi va bu fursatdan foydalanib shunchaki surtmalarga asta-sekin sovuq tusni hosil qiladigan rang bo'yoqlardan qo'shish kerak. Indigo va ultramarin ranglari bir-biri bilan osongina issiq tusga kiradi va suvda erigan holda go'yo go'zal mato fakturasini yaratadi, siz shunchaki suv bilan bir nechta surtmalar qilishingiz mumkin, qatlamning bir qismini yuvishingiz ham mumkin. Quritilgan eskizlardagi farqni biz, kichik mo'yqalamda ranglarni oqizib bir-biriga ulab ketish usulida bajarilgan eskizda bo'shliqni samarali ifodasini, shuningdek sirtlar ustida go'yo momaqaldiroqni ko'rgandaymiz, suvli mo'yqalam surtmasi esa dengiz to'foni fakturasini hosil qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu usullardan man-zara, natyurmort va turli janrlardagi kompozitsiyalarda hamda me'moriy ob'ektlarni bezaklarida qo'llash mumkin. Bundan tashqari quyida kamdan-kam qo'llanilgan ammo juda samarali usullardan yana biri spirt kabi mahsulotlarni qo'llashdir. Bunda qurimagan nam qatlamga ega bo'lgan etyud yuzasiga spirt bilan purkashdir (mahsus moslama bilan purkaladi). Spirtli tomchilarning bo'yoqqa ta'siri aniqroq ko'rinishi uchun bo'yoq qatlamini zichroq yani qo'yiqroq tarzda bajariladi. Ushbu amalni tajriba tariqasida qattiq tukli cho'tkachada avval eskizda yoki kompozitsiyaning ma'lum bir kichik qismida sinab ko'rish mumkin. Qattiq tukli cho'tkachani spirtga sal botirib, so'ng cho'tka tuklari uchlarini sepiladigan joyga mo'ljallab, ko'rsatgich barmoq uchlari bilan ishqalash yo'li bilan kompozitsiyaning belgilangan joylariga sachratiladi. Agar mo'yqalam yumshoq tukli bo'lsa, u holda mo'yqalamni ushlagan holda qo'lni ohista tasvir yuzasining belgilangan joylariga silkitiladi. Shunda rangli qatlam yuzasiga tushgan spirt tomchilari, rang qatlamini eritib xar tarafga tarqatib, qog'ozning oq tusi ko'rinadigan darajada tasvir yuzasida oq dog'lar hosil qiladi (5-rasm).

5-rasm



NATIJALAR

Ushbu usul yordamida tasvirda tekstura hosil qilish, ayniqsa manzara janrida ob-havo hodisalarini ifodalashda juda qo'l keladi. Masalan, yog'ayotgan qor yoki yomg'irni, esayotgan shamolni, dovul yoki bo'ronni, bundan tasqari tungi manzaradagi yulduzlar yoki koinotni tasvirlashda kompozitsiyani yanada jonlantirib harakatli ko'rsatadi (6- rasm). Portret janrida esa bunday kreativ usullar kompozitsiyaga hissiy ifoda bag'ishlaydi (7- rasm).

Tadqiqotda asosan qurimagan akvarel bo'yog'i yuzasiga kimyoviy kristal mahsulotlaridan natriy xlor tuzi sepiladi, suyuqliklardan esa suv va spirt mahsulotini purkash yoki sachratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bo'yoq yuzasiga tushgan suv bilan spirt izlari tuzilishi bir-biridan farq qiladi. Hatto suyuqliklarni purkash va sachratish yo'li bilan hosil qilingan izlar ham tuzilishi jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ushbu amallarni bajarish uchun suv purkagich va qattiq cho'tkachadan foydalaniladi.

MUHOKAMA

Endi tuz kristallari shuningdek purkalgan hamda sachratilgan suv va spirtning tomchi zarralari qurimagan nam holatdagi bo'yoq yuzasiga qanday ta'sir qilishini



6- rasm



7- rasm

Endi tuz kristallari shuningdek purkalgan hamda sachratilgan suv va spirtning tomchi zarralari qurimagan nam holatdagi bo'yoq yuzasiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz. Suvdan hosil bo'lgan izlarning namunasida shakllarning ko'rinishi loyqali amorf holatni eslatadi. Suv bilan purkash yomg'ir, momaqaldiroq, osmonning suvda aks etishi, silliq yuzalarda hosil bo'luvchi yaltirab ko'rinuvchi bliklarni va hokoza tabiatning atmosfera hodisalarini obrazli ifoda etish uchun samarali qo'llasa bo'ladi. Tuzdan hosil bo'lgan izlarning namunasida esa shakllar ko'proq aniq bir tuzilishga egadir. Shuning uchun, butalar, daraxtlar, o'simliklar, qumloq va yana boshqa teksturalarni tuzilishini tasvirlashda tuzdan foydalanish kompozitsiya uchun juda qo'l keladi. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra shu narsa ma'lum bo'ldiki, ushbu jarayon suv bilan tuzning bo'yoq qatlamiga kirib borishi va kimyoviy ta'siri bo'yqni eritib markazdan har tarafga surib chiqarishi kuzatildi, ammo spirt mahsulotiga nisbatan bo'yqni to'liq eritib tozalay olmadi. Biroq natriy xlor tuzini qo'llashda sepiladigan tuzning kristal zarrallarini mayda yoki yirikligida ham turli natija kuzatilib, tuz kristallarini juda mayda yoki yirik bo'lmasdan ma'lum bir o'zining meyyorida bo'lishi tajribada yaxshi natija ko'rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki yuqorida aytib o'tilgan ijodiy amaliy tadqiqot izlanishlari natijasida talabalar, akvarel bo'yoqlarida ishlashning yangicha njan'anaviy texnik usullarini o'zlarida kashf qiladilar. Bu o'z navbatida akvarelda ishlash texnikasini estetik jihatdan sezilarli darajada boyitadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Р.Ш. Халилов. Учебное пособие ТАШКЕНТ: «АКВАРЕЛЬ», 2009 г. (5-16 betlar)

PEDAGOGIKA

2. R. Xudoyberganov. Rangshunoslik asoslari. Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyiushmasi. 2006. B

3. Sohibov, R. (2022). RANGLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 234-238.

4. Yuldashev, I. (2022). BORLIQNI IDROK ETISH VA TASVIRLASHGA DOIR DASTLABKI MA'LUMOTLAR HAMDA ULARNI XARAKTERLI JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 9-15.

5. Yunusaliyev, M. T. (2023). AKVAREL TEXNIKASIDA RANGLAR LOYQALANSHNING OLDINI OLISH SHARTLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 269-276.

Internet saytlari:

<https://www.google.com/>

<https://www.youtube.com/>